

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |
ISSUE 1**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги СЕУ университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси
мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
5. Джураева Нигора Авазовна СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
6. Yusupova Dildora Dilshatovna YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
8. Xojiev Tunis Nurkosimovich YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
10. Bultakov Begzod Abdurasulovich INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna**

falsafa fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti

Falsafa kafedrasining dotsenti

SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126792>**ANNOTATSIYA**

Buyuk shaxslarning hayoti, tarix sahnasidagi o'rni, tarixiy taraqqiyotga ta'siri masalasi hamma vaqt ijtimoiy gumanitar fan vakillarining diqqat e'tiborida bo'lgan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxslardan biri sohibqiron Amir Temur haqida ko'plab tarixiy manbalar tadqiqotlar mavjud. Ularda buyuk sarkarda va davlat arbobining hayoti, harbiy va boshqaruv salohiyati turli nuqtayi nazardan o'rganilgan, bir-biriga qarama qarshi fikrlar bildirilgan. Ushbu maqolada sohibqiron Amir Temurning tushunchalar olami, fikr yuritish paradigmasi, qaror qabul qilish algoritmining falsafiy asoslari shaxs identikligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, shaxs identikligi, ijtimoiy-madaniy paradigma, dilemma, deduktiv xulosa chiqarish, analitik tafakkur tarzi, analogiya.

Faizihodjaeva Dilbar Irgashevna

Doctor of Philosophy DSc, National University of Uzbekistan

Associate Professor, Department of Philosophy

LOGICAL JUSTIFICATION OF AMIR TEMUR'S DECISIONS**ANNOTATION**

The lives of great personalities, their place on the historical stage, and their influence on historical development have always attracted the attention of social and humanitarian sciences. There are numerous historical sources and studies about the great Amir Timur, one of the greatest figures who left an indelible mark on history. These studies examine his military and managerial abilities from various perspectives, with differing opinions being expressed. This article analyzes the philosophical foundations of the world of concepts, the paradigm of thinking, and the decision-making algorithm of the great conqueror, as well as their relationship to personal identity.

Keywords: Amir Temur, personal identity, sociocultural paradigm, dilemma, deductive inference, analytical way of thinking, analogy.

Файзиходжаева Дилбар Иргашевна

доктор философских наук, доцент кафедры Философия Национального университета

Узбекистана

ЛОГИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ РЕШЕНИЙ АМИРА ТЕМУРА

АННОТАЦИЯ

Жизнь великих личностей, их место на исторической сцене и влияние на развитие истории всегда привлекали внимание представителей социальных и гуманитарных наук. Существует множество исторических источников и исследований о великом Амуре Темуре, одном из величайших деятелей, оставившем неизгладимый след в истории. В этих исследованиях рассматриваются его военные и управленческие способности с разных точек зрения, высказываются противоположные мнения. В статье анализируются философские основы мира понятий, парадигма мышления и алгоритм принятия решений великого завоевателя, а также их взаимосвязь с идентичностью личности.

Ключевые слова: Амур Темур, идентичность личности, социокультурная парадигма, дилемма, дедуктивный вывод, аналитический способ мышления, аналогия.

Kirish va dolzarbligi. 1948-yilda Fransiyada Amir Temur va Temuriylar tarixini o'rganish bo'yicha alohida ilmiy markaz tashkil etilishi Amir Temurning jahon sivilizatsiyasidagi beqiyos rolini o'rganish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqotlarni boshlab berdi. XX asrda jahon sharqshunosligida Amir Temur va temuriylar davrini tadqiq qilish alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Xorij va sovet sharqshunoslari ilmiy izlanishlarini taqdim qildilar. Sovet mafkurasi tufayli o'zbek olimlari bu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishdan chetda qoldilar. 1968-yili akademik I.Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni" risolasining e'lon qilinishi katta bahslarga va olimga bo'lgan munosabatning ma'lum darajada o'zgarishiga sabab bo'ldi. [5.]

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan boshlab buyuk bobomiz Amir Temurning shaxsi va faoliyatiga bo'lgan xolis munosabat tiklandi, bu borada ko'plab ilmiy ishlar nashr qilindi va qilinmoqda. Bu ilmiy ishlarda bobomiz Amir Temur faoliyatining turli qirralari tadqiq qilingan. Lekin, bizning kuzatuvimizga ko'ra, Sohibqironning fikr yuritish uslubi, qarorlarining mantiqiy dalillanishi bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Amir Temur kabi buyuk sarkarda va davlat arbobining jahon sivilizatsiyasiga ta'sirini to'liq va haqqoniy baholash uchun uning tushunchalar olami qanday ijtimoiy-madaniy paradigmalarda kontekstida shakllanganligini, qaror qabul qilishida qanday dalillarga asoslanganligini shaxs identikligi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish dolzarb va muhimdir. Chunki "...individlar yoki guruhlar o'zlari mansub bo'lgan identiklikni o'zlari uchun eng mos va to'g'ri obraz deb hisoblar ekanlar, ularning nazarida bu identiklik ularning hayotiy me'yorlari, e'tiqodlari, ideallari, orzu umidlari va kelajakdagi rejalari bilan bog'lanib ketgan hamda o'zlari tanlagan identiklik ularga katta istiqbol yo'li sifatida, eng afzal haqiqat yo'li bo'lib ko'rinadi." [4.41.]

Tadqiqot metodi. Sohibqiron Amir Temur faoliyati davomida qabul qilgan qarorlarning mantiqiy asoslanishini va shu nuqtayi nazardan uning shaxsiga berilgan baholarning qay darajada haqqoniy ekanligini aniqlashni tadqiqotimizning asosiy vazifasi qilib belgiladik. Bu vazifani bajarish uchun Amir Temurning tuzuklarini, Sohibqiron haqida yozilgan manbalarni va olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tarixiy va intellektual kontekstda tahlil qildik. Boshqa ilmiy tadqiqotlardan farqli ravishda asosiy e'tiborni Sohibqiron qarorlarining mantiqiy asoslanishiga, uning tushunchalar olamini tahlil etish orqali fikrlash usulini aniqlashga, qaror qabul qilishiga ta'sir qilgan omillarni tadqiq qilishga qaratdik. Sohibqiron Amir Temur haqida mavjud manbalar va ilmiy adabiyotlarning ko'lami nihoyatda keng bo'lib, ularni bir maqola hajmida tahlil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun tadqiqotimizda "Temur tuzuklari" va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sini tadqiqotimizning bosh manbai sifatida tanladik. Chunki Amir Temur faoliyatini tadqiq qilgan olimlarning ko'pchiligi ushbu asarlarni asosiy manba sifatida qayd etganlar. Tadqiqotimizda ilmiy bilishning analiz va sintez, deduksiya, induksiya, analogiya usullaridan, germenetik va sinergetik tahlildan foydalandik.

Tadqiqot natijalari. Insonning fikr-o'ylari, tushunchalar olami uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Sohibqiron Amir Temurning tushunchalar olami o'sha davr ijtimoiy-madaniy paradigmalarga mos shakllangan. Xerman Vamberining yozishicha, Amir Temur bolaligidan suvoriylik va musulmonchilik ruhida tarbiyalanib, mo'g'ullarni daf qilish fikrida o'sdi. [8.30.] U yoshligida otasining va ruhoniylarning talqinlari ta'siri bilan hayotga islom va tasavvuf nazari

bilan qaragan edi. Uning qat'iy jangovar ruhi va chegara bilmas yagona rayosati hamisha bu sifatleri bilan botiniy kurashda edi [8.48.]. U islom diniga muxlis bo'lish birga, Chingiz nizomlarini ham juda hurmat qilardi.[8.35.] Xerman Vamberining yuqoridagi fikrlari buyuk sarkardaning tushunchalar olamining shakllanishiga ta'sir qilgan omillar haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Sohibqiron Amir Temurning tushunchalar olami uning shaxsini identifikatsiya qilishga, ya'ni shaxsining asl mohiyatini tushunishga imkon beradi. Shaxs identikligi (lot. identicus – aynanlik, bir xillik) tushunchasi shaxs tomonidan o'zining qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi hamda shu ijtimoiy guruh doirasida qanday ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilishini bildiradi. Ushbu tushuncha ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan har bir insonning hayotiy faoliyatini boshqaruvchi imperativdir. U insonda “men kimman?”, “mening boshqalardan farqim nima?” degan savollar asosida vujudga keladi va identiklikning o'zi doimiy izlanishlar, o'z-o'zini anglash yo'lidagi murakkab jarayonni bosib o'tadi. [4.41-42.]

Amir Temurning “Men hamisha podshohlar uchun kofirlarga qarshi g'azovot qilishdan, mamlakatlarni zabt etishdan va jahongirlikdan yaxshiroq ish yo'q, degan fikrda edim”- degan gapi uning tushunchalar olamining o'ziga xosligini ifodalaydi. “Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir, shunday bo'lgach Alloh taoloning muqaddas mulki-yer yuziga egalik qiladigan podshoh ham bitta bo'lishi kerak” -degan o'ylari sohibqiron tushunchalar olamidagi bosh g'oya bo'lgan. Amir Temur ushbu fikrining tasdig'ini Qur'oni Karimdan fol ochib topganligini (Sod surasi, 26-oyat) bayon qiladi. [9. 71.]

“Temur tuzuklari”ning birinchi qismini o'qir ekanmiz, Sohibqironning fikrlash uslubining o'ziga xosligiga amin bo'lamiz. Ma'lumki, fikrlash uslubi-bu ma'lumotni qayta ishlashning o'ziga xos usuli bo'lib, u odamning bilimiga ega bo'lishini, fikrlarni tartibga solishini, qarashlar va fikrlarni shakllantirishini, shaxsiy qadriyatlarni qo'llashini, muammolarni hal qilishini, qarorlar qabul qilishini va rejalashtirishini belgilaydi. Fikrlash uslubida odatda quyidagi tarkibiy elementlar ajratiladi: dunyo tasviri; voqelikni bilish usullari; aqliy faoliyatning usullari va standartlari; qadriyatlar; an'analar; olingan bilimlarning haqiqat mezonlari; ma'lum bir odamning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan jihatlari.

“Temur tuzuklari”da ma'lumotni qayta ishlashning o'ziga xos usuli o'z-o'zi bilan kengashish, boshqalarning fikri va maslahatlarini tinglash, hushyorlik va mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqarish va ehtiyotkor bo'lish bilan tavsiflanadi. [9.41.] Sohibqiron davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar bilan bog'liq masalalarni kengash chaqirib, maslahatlashar ekan, har bir taklifning foyda va ziyonini solishtirib ko'rib, qaysi biri foydaliroq va kam zararli bo'lsa, shunisini ixtiyor etgan. Bu borada buyuk bobomizning qaror qabul qilish algoritmi quyidagicha bo'lgan: 1. Muammoning mavjudligini aniqlash. 2. Muammoning yechimlarini (alternativalarini) topish. 3. Har bir yechimning xarajatlarini (foйда va ziyonlarini) solishtirish. 4. Yechimning oqibatini taxminlash (lemmatik xulosa chiqarish). 5. Qaror qabul qilish.

Insonning fikrlash usulida shaxsiy qadriyatlari aks etadi. Sohibqironning qadriyatlar tizimi uning pirlariga, quroldosh do'stlari va qarindoshlariga, mag'lublarga, raiyatga bo'lgan munosabatida, saltanat poytaxtini obod qilish masalalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Amir Temur uchun haqiqat mezoni Qur'oni Karim, pirlarining ko'rsatmalari, shaxsiy tajriba va sezgilar bergan ma'lumotlardir. “Temir Tuzuklari”ni o'qir ekanmiz, sohibqironning biron bir masalaning yechimi to'g'ri tanlanganini bilish yoki yechimlardan birini tanlashdagi ikkilanishni bartaraf etish maqsadida Qur'oni Karimga murojaat qilganliklarini va Qur'on hukmi bilan ish qilganliklarini bilish mumkin. [9. 45, 66-67, 71, 90.]

Sohibqiron olimlar, tarixchilar, sayyohlar bilan o'tmish podshohlarining tarixi, jang-u jadallari, olib borgan siyosatlari haqida ko'p suhbatlashib, ularning ishlarini chuqur mulohaza qilib xulosalar chiqarganlar. Lashkarni boshqarish, tartib va intizomni o'rnatish va saqlashda, taqdirlashda Chingizxonning yasoqlaridan namuna olganlar. “Temur tuzuklari”ning tahlili Sohibqironning o'ziga xos fikr yuritish paradigmasi mavjudligini tasdiqlaydi. Ma'lumki, fikrlash paradigmasi insonning ma'lum bir mavzu yoki vaziyatga yondashishi va tushunishi uchun qabul qilgan tuzilma yoki andozani anglatadi. Bu insonning fikrlarini shakllantiradigan va ma'lumotni qanday qabul qilinishi va qayta ishlanishiga ta'sir qiluvchi tushunchalar yoki taxminlar to'plamidir. Turli xil fikrlash

paradigmaları har xil xulosalar va natijalarga olib kelishi mumkin. Fikrlash paradigmaları muammolarning samarali yechimini topish va qaror qabul qilish uchun juda muhimdir.

Amir Temur harbiy yurishlarida ungacha bo'lgan urush strategiyalarga xos ko'plab taktikalarni qo'llaganini manbalardan ko'rish mumkin. Sohibqiron uchun strategiya eng yaxshi harakatlarni tanlash bo'lgan. Bunga ko'ra:

1. Dushman davlatini tor mor etishdan ko'ra, uni buzmasdan saqlash yaxshiroqdir;
2. Dushman qo'shinini mag'lub etishdan ko'ra, uni xavfsiz saqlash maqbulroqdir.

Shuning uchun, yuz marta jang qilish va yuz marta g'alaba qozonish eng yaxshi narsa emas. Balki eng yaxshisi jang qilmasdan, dushmanning lashkarlarini zabt etishdir. Shuning uchun, urushni yaxshi biladigan kishi jang qilmasdan boshqa birovning lashkarini zabt etadi; hujum qilmasdan boshqa birovning qal'alarini oladi; uzoq vaqt davomida qo'shinni ushlab turmasdan, uni safarbar qilib turadi.

Shu o'rinda "Temur tuzuklari"da keltirilgan Isfahon yurishi bilan bog'liq tafsilotlarni yuqoridagi taktikalarga asoslanib tahlil qilsak, Sohibqiron qabul qilgan qarorni to'g'ri baholash mumkin bo'ladi. Tuzuklarda bu haqda shunday yoziladi: "Isfahonni zabt etdim. Shahar aholisiga ishonch bildirib, qal'asini o'zlarining qo'lga topshirdim. Ular esa isyon ko'tarib men tayinlagan dorug'ani hamda uch ming askarimni tig'dan o'tkazdilar (manbalarda keltirilishicha, ularni jang qilmasdan, uyqularida o'ldirganlar. – D.F.). Men Isfahon aholisini qatli om qilish haqida buyruq berdim." [9.84.] Yuqoridagi bayondan ma'lumki, Amir Temur bilan Isfahon asilzodalarining vakillari ahd-shartnoma tuzishgan, aks xolda qal'a ularning qo'lga topshirilmagan bo'lardi. Sohibqiron uchun "erlik kishida ahdni sindirmoq ravo yo'qtir va ahdni sindirgon kishini er desa bo'lmas." [10. 57.]

Isfahonliklar ahdni buzdilar, va ularga ishonib qoldirilgan askarlarni o'ldirdilar. Ularning bu ishlari yolg'onga asoslangan xoinlik edi. O'sha davrda yashagan har qanday sarkarda bu xoinlikni jazosiz qoldirmagan bo'lardi. Bu o'sha davrning jang san'atiga xos taomili edi. Faraz qilamiz, Isfahondagi bu xoinlikka yengil jazo berilsa, unda boshqa qal'alarda ham shunday xoinliklar bo'lmasligiga ishonib bo'lmaydi. Natijada mamlakat xarob bo'ladi, qurbonlar soni bundan ham ortiq bo'ladi. Shu bois ham, o'tmishga baho berganda ayni o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy paradigmalarni e'tiborga olish muhimdir. Sohibqironning bu qarori o'z davri uchun eng to'g'ri qaror bo'lgan. Qaror Amir Temurning davlatni boshqarishdagi bosh tamoyili" raiyatni qo'rquv va umid orasida saqlash" ko'rsatmasiga muvofiq qabul qilingan.[9.66, 115.]

Baholash mantig'iga ko'ra baholar chin yoki yolg'on bo'lmaydi. Chunki baholovchi subyektning bahosida uning baholanayotgan obyektga shaxsiy munosabati aks etadi. Baholovchi subyektning dunyoqarashi, bilimi, tajribasi, qadriyatlar tizimi, manfaatlari kabi qator mezonlar bu munosabatning negizini tashkil qiladi. Shu bois baholar ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si bilan Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi"ni solishtirsak, mualliflarning qarashlaridagi, voqealarga bo'lgan munosabatlari, baholashdagi farqlarni ko'ramiz. Amir Temur faoliyatiga berilgan baholarni tahlil qilganda baholayotgan shaxsning kimligi, baholashda qanday mezonlarga, ijtimoiy madaniy paradigmalarga asoslanishiga e'tibor berish bahoning obyektivlik darajasini aniqlash uchun muhimdir.

Temur tuzuklarida Sohibqiron u yoki bu davlatga qarshi yurish qilishining sabablari sifatida boshqa hududlardagi aholining turli toifadagi hukmdorlar zulmidan shikoyat qilib yozgan arizalari, adolatsizlik, zulmning kuchayishi kabilar keltiriladi. [10.83.] Bu sabablarning to'qima emas, balki haqqoniyligini ozarbayjonlik so'fiy shoir Qosimi Anvarning (1434 y. v.e.) risolalari ham tasdiqlaydi. Uning "Beyan-ye vagi-ye didan-ye amir-ye Teymur" risolasida Amir Temurning xarbiy yurishini zohidlarning riyosi, ilmning samarasizligi, xonlarning adolatsizligi va xalq xudoning inoyatini inkor etgani uchun Yaratganning jazosi sifatida tasvirlaydi. [2.142.] Albatta natijalarni tushuntirish uchun sabablarga bog'lanish insonlarga xosdir. Biz bu o'rinda Sohibqironning va o'sha davr olimining sabab va natijalar borasidagi fikrlarining o'xshashligiga e'tiborni qaratyapmiz.

Haqiqat va adolat o'zaro bog'liq tushunchalardir. Haqiqat bor joyda adolat bo'ladi. Adolat haqiqatni e'tirof etish demakdir. I.Mo'minov "Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir" maqolasida Sharafiddin Ali Yazdiyning fikrlariga asoslanib, shunday yozgan: "Amir Temurning xarakterli xususiyatlaridan biri – davlat, mamlakat fuqarosiga g'amxo'rlik edi. Uning qoidasi – "rosti –rasti"

edi. Haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat demakdir, deb tushuntirardi u.” [6,20.]

Qadimdan siyosatning adolatli ekanligi rahbarning odilligi bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Tuzuklardan ma‘lum bo‘ladiki, adolat degani har bir kishiga nimaga haqli bo‘lsa, o‘shani berishdir, ya‘ni odil qaror qilishdir. Kashmir shoxi Iskandar Amir Temurga bo‘ysunib, uning xizmatiga kirganidan so‘ng, moliya xizmatchisi tomonidan uch ming ot va Kashmir pul birligida yuz ming oltin to‘lashi kerakligi ma‘lum qilinadi. Sohibqiron Kashmir va uning aholisi uchun bu o‘lponni to‘lash og‘ir ekanligidan uni bekor qiladi. Laxor shahzodasi esa Amir Temur saroyi vakillarini hurmatini joyiga qo‘ymagani va bo‘ysunmagani uchun qatl qilinadi va shahar aholisi katta to‘lov to‘lashga majbur bo‘ladi. [11.48.] Bu ham Sohibqiron siyosatining o‘ziga xos usuli bo‘lib, qaror “har kimning fe‘liga qarab munosabatda bo‘lish” [9.66.] qoidasiga muvofiq qabul qilingan.

Sohibqiron tajribasi asosida chiqarilgan xulosalardan yana biri “Olam ahlining barchasi dunyo talabdir.” [10,132.] Bu umumiy tasdiq mulohaza bo‘lib, deduktiv xulosa chiqarishda katta asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan:

Olam ahlining barchasi dunyo talabdir.

Amaldorlar olam ahlidir.

Amaldorlarning barchasi dunyo talabdir.

“Temur Tuzuklari”da yuqoridagi fikrning tasdig‘ini uning amaldorlarning “bir xizmatini o‘n barobar taqdirlagani”, ularning “ko‘ngillarini ovlagani”, “davlatimga sherik bo‘lasizlar” deb umidvor qilganligi [10, 62, 66.] haqidagi mulohazalarida ko‘rish mumkin.

Har bir insonning aqliy va mantiqiy ishlarida o‘zining maqsad va manfaatlari bo‘ladi. Shu bois har bir “nega?” degan savolning “shuning uchun” degan javobi bo‘ladi. Agar bu savolning javobi bo‘lmasa uning ishi noto‘g‘ri va behuda hisoblanadi. Donishmand inson o‘z ishida g‘oya va maqsadga ega bo‘ladi, maqsadi va niyatlari orasidan eng maqbulini ajratib oladi maqsadiga erishish uchun eng yaxshi vosita va yaqin yo‘lni tanlaydi. Demak uning qarshisidan chiqqan har bir “nega?”ga o‘zining munosib javobi bo‘ladi.

Amir Temurning ham tarix va taqdirning “nega?” degan savoliga o‘zining munosib javobi bo‘lgan. Sohibqiron savollarning javoblarini izlashda o‘z tajribalari, bilimlari bilan bir qatorda pirlarining ko‘rsatmalariga asoslanganligiga tuzuklarida ko‘plab misollar topish mumkin. Amir Temurning pirlaridan Zayniddan Toyobodiy Sohibqironiga maktub yo‘llab, dunyoviy va diniy adolatning mohiyatini tushuntirib beradilar. Maktubda pirlari Sohibqironni “Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi”, deb ogohlantiradi, zulmning yo‘lini to‘shishga, zolimlarni qilmishiga yarasha jazolashga buyuradi. Dunyoviy adolat xonning qo‘lida bo‘lsa, Yaratganning yolg‘iz o‘zi ilohiy adolat sohibi ekanligini ta‘kidlaydi. [9.163.]

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” sida Amir Temur qaror qabul qilishda hissiy, ratsional va irratsional bilimlarga asoslanganligini tasdiqlovchi ko‘plab ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Bu esa nohiziqli tafakkur belgilaridir [8.17]. Amir Temurning fikr yuritishiga xos bo‘lgan nohiziqlilik kengashlarda axborot almashinuvi uchun ochiqligi, masalaning turli yechimlarini tahlil qilinishi, qarorlarni argumentlash jarayoni ko‘plab omillarning birligidan tashkil topganligi, dalillarning turli maqsadlarda qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Biz manbalarga tayanib, Sohibqiron Amir Temur qarorlarining mantiqiy asoslanishida quyidagilardan dalil sifatida foydalanilganligini tahlil qildik: 1. Qur‘oni Karim; 2. Pirlarining duosi va maslahati; 3. Shaxsiy tajriba; 4. Kengash; 5. Tadbir.

Xulosa. Fransuz sharqshunos olimi Lyusen Keren “Amir Temur saltanati” asarida “Haqiqiy ismi Temurbek bo‘lmish Amir Temurni yaxshi bilmasligimizning sababi u haqdagi tarixiy ma‘lumotlar yo‘qligida emas, balki ko‘plab faktlarning har xilligidandir”, - deb yozgan. [3.8.] Biz bunga qo‘shimcha qilib, sohibqironning hayoti va faoliyatiga turli nuqtayi nazardan yondashish, talqin qilish mumkinligini ta‘kidlaymiz. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning qaror qabul qilishining mantiqiy asoslari bilan bog‘liq ba‘zi masalalarni tahlil qildik. O‘ylaymizki, ushbu yo‘nalishda ko‘plab yangi tadqiqotlar, izlanishlar olib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Toshkent: Mehnat, 1992.
2. Қосими Анвар. Бейан-е ваги-е дидан-е амир-е Теймур // Кули-заде З.А. Мироззрение Касими Анвара. Баку: “Элм”, 1976.
3. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Ikkinchi nashr. T.: OZBEKISTON -2018.
4. Madayeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Toshkent: “Noshir” nashriyoti. 2015.
5. Muminov I. Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni. T.:Fan, 1993.
6. Moʻminov I. Amir Temur ibn Taragʻay Bahodir // Somon yoʻli. Adabiy tarixiy majmua. T.: Kamalak, 1992.
7. Turayev B.O. Maʼnaviy merosni oʻrganishda sinergetik metodologiyaning oʻrni // Sinergetika-3: maʼnaviy meros. Ilmiy toʻplam. T.: “FAN ZIYOSI” nashriyoti, 2024.
8. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Kitobdan parchalar. /Toʻpl.: S.Ahmad./ T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1990.
9. Chingizxon yasogʻi va Tumur tuzuklari [Matn] / - Toshkent: Info Capital Books, 2024.
10. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997. Юлдашев Ф.Т. Выдающиеся заслуги Амира Тимура перед своим народом и отечеством. Монография. Т., 2022.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000